

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Mambetova Lobar Mirzavali qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti

mambetovalobar1304@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni yoritildi.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutqiy faoliyat, og'zaki va yozma nutq, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, matn, interfaol metodlar.

So'nggi yillarda respublikamizda umumiy o'rta ta'lim bosqichida ona tili o'qitish tizimini yangicha innovatsion sifat bosqichiga olib chiqishga oid islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Ona tili – o'rganish fani sifatida inson hayotining barcha sohaları bilan bog'liq, shuning uchun unda tabiat ham, jamiyat ham, inson shaxsi ham, san'at ham so'z orqali o'z ifodasini topadi"[1]. Darhaqiqat, hayotimizda so'zning qudrati cheksiz va insonga bebaho ne'mat – so'zlash qobiliyati, nutqiy faoliyat berilgan. "Nutqning sharofati bilan tafakkur mahsulotlarining izchilligi, mantiqiyliigi, sistemaliligi yuzaga keldi, kelajak avlod uchun meros tariqasida qoldirish imkoniyati barpo bo'ldi. Tafakkur mahsulotlarining og'zaki va yozma nutqlarda ifodalanishi (mustahkamlanishi) yosh avlodga muvaffaqiyatli ta'lim berish, ularni har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi"[2]. Tilshunos A.Sodiqov nutq faoliyatini: "Nutq faoliyati ikki tomonlama hodisa bo'lib, u ham psixologik, ham ijtimoiy hodisadir. Nutq faoliyati, avvalo, odamlarning til yordamida bir-biri bilan muloqotda bo'lish akti, ya'ni ikki ijtimoiy akt jarayonidir"[3], - deb ta'riflaydi. Nutqiy faoliyat orqali tinglovchi va so'zlovchi kommunikativligi, o'zaro muloqoti aks etadi.

Ona tili fani o'quvchilarni grammatik bilimlar bilan qurollantirib qolmasdan, o'quvchilarning fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. R.A.Yo'ldoshev, L.R.Mirjalolovalarning fikricha, "Nutqiy kompetensiya deganda, bilim, nutqiy birlik, ko'nikma, malaka chizig'idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

nutqda bexato yoki xato qo'llanadigan, shuningdek, o'quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog'lanadi, asosiy e'tibor ayni shu til hodisasini amalda to'g'ri qo'llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o'zlashtirish, nutqda qo'llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko'nikma asta-sekin malakaga aylanib boradi"[4]. Bizningcha, nutqiy kompetensiya ijtimoiy hodisa sanalib, amaliy jihatdan layoqatga aylangan faoliyatdir. Nutqiy kompetensiya rivoji o'z fikrini jonli nutqida erkin, xatosiz, mazmundor holda og'zaki va yozma bayon qilishi bilan o'lchanadi. Nutqiy kompetensiya elementlari: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish ona tili o'qitish jarayonida takomillashadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiya komponentlarini egallashga doir ilmiy nazariy bilimlarni chuqur o'rganishga, ijodiy, erkin, kreativ, ilmiy fikrlash, tevarak-atrofga, tashqi muhitga ongli munosabatni rivojlantirish, og'zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishga zarur imkoniyatlarni yaratib, o'quvchilarning ilmiy va ijodiy faoliyatini tashkil etishning integrativ hamda kommunikativ yondashuvlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Chunonchi, respublikamizda 2021-2022-o'quv yilida Milliy dastur asosida 1-2-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari, o'quvchi mashq daftarlari va pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar joriy qilindi. 2022-2023-o'quv yilida 3-,6-,7-,10-sinflar uchun yangicha shakl va mazmundagi zamonaviy "Ona tili" darsliklari yaratildi.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri og'zaki va yozma nutqini adabiy til me'yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, o'quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat'iy o'zlashtirilishi natijasida o'quvchilarda tinglab tushunish, eshitish, so'zlash va yozish nutqiy ko'nikmalariga ega bo'lish, subyektiv munosabat bildirish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, ta'lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlarini rivojlantirishda turli uslubdagi qiziqarli ma'lumotlarni o'zida jamlagan yaxlit matnlar yoki yaxlit mazmun ifodalagan badiiy matn parchalari ustida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni muhim ahamiyatga ega. Matn tahlili topshiriqlariga nutqiy kompetensiya elementlarini rivojlantirishga qaratilgan matn mazmuni bilan bog'liq topshiriqlar qatoriga grammatik mavzuni o'zlashtirilishini va



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

mustahkamlanishini ta'minlaydigan topshiriqlarni kiritish zarur. Matn mazmuni bilan bog'liq topshiriqlar: matn bilan tanishishdan oldingi savol-javoblar, matn sarlavhasi bo'yicha suhbat, lug'at ustida ishlash, matn o'qib eshittirilgandan so'ng matn bo'yicha savol-javoblar, matnga mos sarlavha topish, matn qismlarini ketma-ketligini to'g'ri topish, matnga mos reja tuzish, matnda berilgan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash kabi topshiriqlar hamda o'tilgan grammatik mavzu yuzasidan ham topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida mahoratli pedagog ta'lim shakliga mos o'qitishning interfaol metodlaridan samarali foydalana oladi. Ona tili ta'limida "So'z zanjiri", "Bigalikda o'rganamiz", "Kim? Nima? Qachon? Qayerda?", "Qiziqarli taqdimot", "Hikoyani davom ettir", "Matn qismlarini birlashtir", "Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar ustida ishlash", "Savodxon", "Grammatik-assotsiativ metod", "Qiziqarli taqdimot", "Zukkolik", "Subyektiv munosabat", "Ma'nosiga izoh", "Bahsmunozara", "Mening xulosam", "O'yla, izla, top!" kabi interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

Xulosa shuki, amaldagi ona tili darsliklarida lingvistik kompetesiya bilan birga nutqiy kompetensiya tarkibiy qismlari: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ishlar mazmuni yildan yilga bosqichma-bosqich takomillashtirilib bormoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: "Sharq", 2007. -24-b.
2. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1990. – 15-b.
3. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -T.: "O'qituvchi", 1981. – 76-b.
4. Yo'ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv: Metodik qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019. – 9-b.
5. Turdiev N.SH., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. -T.: Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2015. - 8-b.

